

DALA QIRQBO‘G‘IM (*EQUISETUM ARVENSE*) O‘SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

¹*Abdurahmonova Nafisa Shuhrat qizi*

²*Abdullayeva Yulduz Olim qizi*

³*Mamatqulova Iroda Ergashevna*

^{1,2,3}*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universitetining Jizzax filiali*

Annotatsiya: Ushbu tezisimda dorivor o‘simliklar turiga kiruvchi dala qirqbo‘gimi haqida keltirilgan. Dala qirqbo‘g‘imini xalq tabobatida qo‘llanishi haqida va buyuk bobokolanimiz Abu Ali ibn Sinoning o‘zining davolash amaliyotida qo‘llaganligi haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Dala qirqbo‘g‘imi tarkibida oshlovchi, achchiq moddalar va smolalar borligi ham aniqlangan..

Kalit so‘zlar: *equisetum arvense*, silikat kislota, nefrit, siydik haydovchi vosita, ekstrakt.

Kirish: Dala qirqbo‘g‘imi (*Equisetum arvense*) Qirqbo‘g‘imdoslar (*Equisetaceae*) oilasiga kiradi. Dala qirqbo‘g‘imi ko‘p yillik, sporali o‘simlik. Uning shoxlari serqirra va bo‘g‘imlarga bo‘lingan. Bo‘g‘im oraliqlarining ichi kovak. Uning shoxlari poya bo‘g‘imlaridan chiqadi va bo‘g‘imlarda halqa hosil qilib joylashadi. Poyasi ikki xil: bahor va yozgi bo‘ladi. O‘simlik keng tarqalgan bo‘lib, cho‘l va yarim cho‘l tumanlardan boshqa hamma yerda uchraydi. Qirqbo‘g‘im o‘simligi asosan, ariq bo‘ylarida, qumli o‘tloqlarda butalar orasida, o‘rmonzorlarda va ekinzorlarda o‘sadi. Yoz oylarining o‘rtalarida o‘simlikning yer ustki qismi, yozgi spora hosil qilmaydigan poyasi yerdan 5 sm balandlikda o‘rib olinadi.[8,9]

Asosiy qism: Qirqbo‘g‘im preparatlari qon aylanishi yetishmovchiligida, siydik pufagi yallig‘lanishida va siydik yo‘llari kasalligida siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Bulardan tashqari, dala qirqbo‘g‘imi o‘pka sili kasalligining silikat kislota almashinuvining buzilishiga bo‘liq ba‘zi formalarni davolashda, shuningdek, bachadondan qon oqqanda va bavirus kasalligida qon to‘xtatuvchi modda sifatida ishlatiladi.[6,7] Dala qirqbo‘g‘imi o‘simligi buyrakning ba‘zi kasalliklarida (nefrit, nefroz va nefroza- nefrit) iste‘mol qilinmaydi. Suyuq ekstrakt, qaynatma, damlamalar ko‘rinishida qo‘llaniladi. Maxsulot yana siydik haydovchi choy – yig‘malar tarkibiga kiradi. Peshob haydovchi vosita sifatida qo‘llashga tavsiya etiladi. Abu Ali ibn Sino quritilmagan qirqbo‘g‘imdan olingan shira bilan yaralarni davolagan, quritilib maydalangan o‘tiga sharob qo‘shib tayyorlangan tindirman jigar shishi kasalliklarni davolashga ishlatgan.[4,5] Xalq tabobatida qirqbo‘g‘im choyi dezinfeksiyalovchi vosita sifatida angina va og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarida g‘arg‘ara qilinadi. Burundan yoki tish

oldirganda qon ketganda choy bilan chayilsa, bir necha daqiqada qon oqishi to'xtaydi. Bavosilda va bachadondan bemavrid qon ketganda, qon to'xtatuvchi sifatida qirqbo'g'im choyi ichiladi. Qirqbo'g'imdan tayyorlangan choy qo'rg'oshin bilan zaharlanganda ziddi – zahar sifatida ham ichiladi. Kosmetikada ham qirqbo'g'im qo'llaniladi. Terining yiringli yaralariga, xusnbuzar toshganda salfetskaga qirqbo'g'im choyi shimdirilib bog'lab qo'yilsa shifo bo'ladi.[3] Tarkibidagi kislotalar qatorida bo'ladigan silikat kislota biriktiruvchi tuzilma va shilliq pardalar, qon tomirlar devorlaridagi moddalar almashinuvida, suyak to'qimasining rivojlanishida, muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, silikat birikmalar siydikda, siydik toshlari paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan kolloidlar hosil qiladi, o'pka silida ham foyda beradi. Qirqbo'g'im suv – tuzlar almashinuvini joyiga keltirish, xolesterin, shuningdek chiqindi moddalarni organizmdan chiqarib tashlashni osonlashtiradi.[1,2]

Xulosa. Dala qirqbo'g'imi o'lkamizning iqlimiga mos kelganligi, tez va ko'p ko'payishi, shifobaxsh xususiyatlarining ko'pligi, xususan qon aylanishi yetishmovchiligida, siydik pufagi yallig'lanishida, peshob haydovchi vosita sifatida, jigar kasalliklarida va boshqa ko'plab dardga davo ekanligi uchun undan arzon va sifatli dori – darmon ishlab chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. L. X. Yoziyev, N. Z. Arabova “ Dorivor o'simliklar” Toshkent – 2017 – yil (149 – 150 – betlar)
2. R. X. Ayupov, “ Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish” Toshkent – 2015 – yil (124 – bet)
3. O'.Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M. Yulchiyeva, D. Mustafakulov. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi –Toshkent 2020.
4. Dorivor o'simliklarda ilmiy izlanish asoslari-Andijon 2020.
5. Mamatkulova I.E."Elwendia Boiss turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o'rganish".Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023.119 стр.19 мая 2023 года
6. Ergashevna M. I., Abduvaliyevich M. M. Elwendiya boiss turkumi turlarining antioksidantlik xususiyatlari //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 498-500.
7. Baxodir o'g'li A. B. et al. IN VITRO SHAROITIDA MAXSULOT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 569-571.
8. BAXODIR O'G'LI A. B. ., Ergashevna M. I., Iskandarovich O. R. A. BIOYOQILG 'ILARNI SANOATDA OLIH TEXNOLOGIYASI VA ULARNING IMKONIYATLARI //Endless light in science. – 2022. – №. декабрь. – С. 150-154.

9. Ваходир о‘g‘li A. B. et al. ODDIY KANAKUNJUT (RICINUS COMMUNIS L) O ‘SIMLIGINING AHAMIYATI VA AGROTEXNOLOGIYASI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 1605-1609.
10. Ваходир о‘g‘li A. B., Iskandarovich O. A., Abduvaliyevich M. M. AMARANT (AMARANTHUS) NING-BOTANIK TASNIFI VA DORIVORLIK XUSUSIYATI //SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 336-337.
11. Джамоатова Ф., Анваров Б. Hypericum perforatum 1 osimligining dorivorlik xususiyati va genetik tahlili //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 276-278.